

## TA'LIM JARAYONIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING ROLI

**Allanazarova Shahnoza Abdurahmonovna**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute Madaniyat va sanat menejmenti kafedrasи madaniyatshunoslik ixtisoslik bo'yicha mustaqil izlanuvchi  
[allanazarovashaxnoza1@gmail.com](mailto:allanazarovashaxnoza1@gmail.com)  
Tel: 998 (90) 935-35-09*

**Annotatsiya:-** *Mazkur maqolada ta'lif jarayonida axloqiy qadriyatlarning tutgan o'rni yoritiladi. Axloqiy tarbiya orqali o'quvchilarda shaxsiy mas'uliyat, halollik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish muhimligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lif, axloqiy qadriyatlar, tarbiya, shaxsiy fazilatlar, mas'uliyat, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, pedagog, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль нравственных ценностей в образовательном процессе. Подчеркивается важность формирования у учащихся таких качеств, как ответственность, честность, гуманизм и патриотизм посредством нравственного воспитания. Также анализируется гармония национальных и общечеловеческих ценностей в современном образовании и роль педагога в этом процессе.

**Ключевые слова:** *образование, нравственные ценности, воспитание, личные качества, ответственность, честность, гуманизм, патриотизм, педагог, национальные ценности, общечеловеческие ценности.*

**Annotation:** This article discusses the role of moral values in the educational process. It emphasizes the importance of developing qualities such as responsibility, honesty, humanism, and patriotism in students through moral education. The article also explores the integration of national and universal values in modern education and highlights the teacher's role in this context.

**Keywords:** *education, moral values, upbringing, personal qualities, responsibility, honesty, humanism, patriotism, teacher, national values, universal values.*

**Kirish:** Ta'lism — bu insonning nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy hayotga tayyorlanish jarayonidir<sup>1</sup>.. Shu sababli ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'rni juda katta.

O'quvchilarni faqat bilim bilan ta'minlashning o'zi kifoya qilmaydi. Ularni halollik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, adolatli bo'lism kabi axloqiy qadriyatlarni o'rgatish ham zarurdir<sup>2</sup>. Bu qadriyatlар nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning ma'naviy salohiyatining kuchayishiga ham yordam beradi<sup>3</sup>. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning ahamiyatini o'rganadi, va ularni amaliyotda undan qanday samarali foydalanish mumkinligini tahlil qiladi ham.

**Tadqiqotning ahamiyati va maqsadi-** Axloqiy qadriyatlар ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchilarni ilmiy jihatdan rivojlantiradi, balki ularni jamiyatda faollikka, adolatli bo'lishga va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Axloqiy qadriyatlarning ta'lim jarayoniga kiritilishi va ta'lim doirasida uni qo'llashda o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnnini topishlariga yordam beradi va ijtimoiy muammolarga o'z vaqtida yechimlar topishga undaydi. Ushbu maqolaning maqsadi ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'rnnini o'rganish va ulardan qanday qilib samarali ravishda o'qitishni aniqlashdir

**Usullar (Methods) – Adabiyotlarni tahlil qilish:** Bunda axloqiy qadriyatlар bilan birga ta'lim sohasidagi mavjud ilmiy adabiyotlar ham tahlil qilindi<sup>4</sup>. O'zbekistonдagi ta'lim tizimida axloqiy qadriyatlarning o'rni va ta'sirini o'rganish uchun ilmiy maqolalar, va ta'lim dasturlari hamda o'quv dasturlarining tahlili bilan amalgalashdirildi.

**Empirik tadqiqot:** O'quvchilar, hamda o'quvchilarni tayyorlovchi o'qituvchilar bilan birlashtirishda ta'lim boshqaruvchilar o'rtaida so'rovnoma va intervylular o'tkaziladi. Bu intervylular orqali axloqiy qadriyatlар ta'lim jarayonida qanday amalgalashdirilganligi va bu jarayonda qanday yondoshuvlar mavjudligini aniqlashga harakat qilinadi va o'rganildi<sup>5</sup>.

**Ta'lim muassasalarida kuzatuvlar:** Tadqiqot davomida ba'zi bir ta'lim muassasalarida axloqiy bormoqda<sup>6</sup>. qadriyatlар bo'yicha ta'lim jarayonlarining amaliyotini kuzatib borishadi. O'qituvchilar dars mobaybida, axloqiy qadriyatlarni qanday qilib integratsiya qilayotganlarini hamda o'quvchilarga qanday ko'nikmalarni o'rgatayotganliklari o'rganiladi.

**Natijalar (Results)-** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha muhim yutuqlar mavjud. O'qituvchilar o'quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni, emas balki ularning axloqiy fazilatlarini

ham rivojlantirishga harakat qilishmoqda. So'rovlar va intervyular orqali aniqlangan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarga bo'lган qiziqishlari kun sayin ortib bormoqda<sup>6</sup>. Ular jamiyatda faollik, adolat, hurmat va vijdonlilik kabi qadriyatlarni hayotga tatbiq etishda o'zlarining ijtimoiy mas'uliyatlarini sezganlar.

Empirik tadqiqotlarda, ayniqsa, o'qituvchilarning axloqiy qadriyatlarni dars jarayoniga qanday kiritishlari bo'yicha yangi usullar yangilik sifatida kiritildi. Masalan, o'quvchilarga guruhli ishlar va muammoli vazifalar orqali axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rgatish, va ularning jamiyatga nisbatan mas'uliyatini yanada kuchaytiradi.

**Munozara (Discussion)-Axloqiy qadriyatlarni o'rgatish nafaqat o'quvchilarning shaxsiy hayotiga, ta'sir qilibgina qolmay balki jamiyatning ijtimoiy hayotiga ham ta'sir qiladi. Ta'lim jarayonida bu qadriyatlarning o'rnnini oshirish, jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishda yosh avlodni tayyorlashda muhim hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlarning ta'lim tizimiga kirishi, o'quvchilarni jamiyatda to'g'ri va axloqan mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga qo'shishning afzallikkleri yangicha metod sifatida samarali bo'lishi uchun o'qituvchilarga maxsus treninglar tashkil etish lozim. Bu orqali o'qituvchilar o'quvchilarga axloqiy qarorlar qabul qilishda va ijtimoiy mas'uliyatda yuqori darajada yordam bera oladilar.**

**Yangiliklar va ilmiy qiymat**-Ushbu maqolada ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'rnnimi o'rganishda yangi ilmiy yangiliklar kiritildi.

**Axloqiy qadriyatlarni o'rgatishning integratsiyalashgan metodlari:** Tadqiqotda axloqiy qadriyatlarni o'qitish jarayonini amaliy tarzda integratsiyalashgan metodlar bilan bog'lashning samaradorligi ko'rsatiladi, va o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashlari va muammoli vazifalar orqali axloqiy qarorlar qabul qilishga o'rgatish usuli yangi bir yondashuv sifatida o'rganiladi.

**Axloqiy qadriyatlarni ta'lim dasturlariga qo'shishning samarali usullari:** Ta'lim dasturlariga axloqiy qadriyatlarni kiritish bo'yicha yangi takliflar kiritildi, va bunda o'qituvchilarga maxsus treninglar o'tkazish va axloqiy qadriyatlarni ko'proq amaliyotga asoslangan tarzda o'qitish zarurligi ko'rsatilgan.

**Xulosa (Conclusion):** Ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning roli o'zgarmas va muhimdir. O'quvchilarni axloqiy qadriyatlarni o'quvchilarga yangicha metod asosda o'rgatish va ularni amaliyotga qo'llashda asosiy rolni o'ynaydi. Kelajakda ta'lim tizimida axloqiy qadriyatlarni yanada samarali o'qitish uchun yangi metodlar va strategiyalar ishlab chiqilishi zarurdir.

Ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning roli o'zgarmas va muhimdir. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning ahamiyati o'rganilib, yangi ilmiy yondashuvlar taklif etildi. Xulosa sifatida, ta'lim tizimida axloqiy qadriyatlarni muvaffaqiyatli o'rgatish uchun quyidagilarni amaliyatga tadbiq etish lozim. Bular:

**Axloqiy qadriyatlarni amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatishning samaradorligi:** Ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni o'rgatishning eng samarali usuli sifatida amaliy mashg'ulotlar va guruqli ishlar ko'rsatilgan. O'quvchilarga haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishda axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rgatish, ularda mas'uliyatni oshiradi. O'quvchilar, amaliy mashg'ulotlar orqali axloqiy qadriyatlarni yanada chuqurroq anglab, ularni kundalik hayotda qo'llashga o'rgandilar.

**Axloqiy qadriyatlarni bo'yicha onlayn resurslarning ahamiyati:** Axloqiy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga qo'shish uchun innovatsion yondashuv sifatida onlayn platformalar va resurslar ishlab chiqish taklif etilgan. Bu platformalar orqali o'qituvchilar va o'quvchilar axloqiy fikrlashishini tahlil qilish va bahslashish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Onlayn kurslar va interaktiv o'quv materiallari ta'lim tizimida axloqiy qadriyatlarni kengroq va yanada samarali o'rgatish uchun yordam beradi.

**Axloqiy qadriyatlarni o'qitishda individual yondoshuvning afzalligi:** Har bir o'quvchining o'ziga xos axloqiy qadriyatlari bor, shuning uchun o'qituvchilarga har bir o'quvchi bilan individual tarzda ishlash tavsiya etiladi. Shaxsiy muammolarni va hayotiy sharoitlarni hisobga olish orqali axloqiy qadriyatlarni o'rgatish yanada samarali bo'ladi. Bu, o'quvchilarning o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi, hamda ularni jamiatga nisbatan mas'uliyatli va axloqan sog'lom shaxs sifatida shakllantiradi.

**Axloqiy qadriyatlarni bilan bog'liq yangi ta'lim dasturlari va kurslarining joriy etilishi:** Ta'lim muassasalarida axloqiy qadriyatlarni o'rgatishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga keng joriy etish zarurati yuzaga keldi. Yangi axloqiy ta'lim dasturlari o'quvchilarga nafaqat axloqiy nazariyalarni, balki real hayotdagi axloqiy masalalarni yechish ko'nikmalarini ham o'rgatishi lozim. Ushbu dasturlar orqali yoshlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribani ham egallahshadi.

**Jamiyat va oilaning ta'lim jarayonidagi o'rni:** Axloqiy qadriyatlarning shakllanishida nafaqat o'qituvchilar emas, balki jamiyat va oila ham muhim rol o'ynaydi.

Oila, jamiyat va ta'lim muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yondoshuv orqali yosh avlodni ijtimoi jihatdan mas'uliyatli va axloqan to'g'ri yo'naltirilgan shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin.

**O'qituvchilarni maxsus treninglar bilan ta'minlash:** O'qituvchilarni axloqiy qadriyatlarni samarali o'rgatishga yo'naltirilgan treninglar va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash zarur. O'qituvchilarning axloqiy tarbiya bo'yicha bilimlari va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish, ta'limda axloqiy qadriyatlarni yuqori darajada taqdim etishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanmalar va treninglar tashkil etilishi kerak.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'rni juda katta bo'lib, ularni o'rgatishning yangi metodlari va yondashuvlarini kiritish, nafaqat o'quvchilarning axloqiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki jamiyatning umumiy ma'naviy darajasini ham oshiradi. Axloqiy qadriyatlarni o'qitishdagi yangiliklar va innovatsion yondashuvlar, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini yanada kuchaytiradi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shamoyanov, A. I. (2020). *Axloqiy qadriyatlар та'lim tizimida*. Ta'lim va jamiyat jurnali, 15(2), 134-140.
  2. Mansurova, S. A. (2021). *Ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarning roli*. O'zbekiston ta'limi, 29(4), 45-52.
  3. Abdukarimov, K. (2022). *Yosh avlodni axloqiy tarbiyalashda ta'lim muassasalarining roli*. Ta'lim tadqiqotlari, 18(3), 101-106.
  4. Shakirov, N. (2023). *Ta'lim va axloq: yangi yondashuvlar*. Toshkent, O'zbekiston
1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
2. Kohlberg, L. (1981). *Essays on Moral Development*. Volume I: The Philosophy of Moral Development. Harper & Row.
3. Nasriddinova, D. (2022). Axloqiy tarbiya va shaxs kamoloti. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, 1(2), 45–51.
4. Sharipova, N. (2021). Ta'lim tizimida axloqiy qadriyatlarning o'rni. *O'zbekiston pedagogik jurnali*, 3(4), 67–72.

- 
5. UNESCO (2015). *Rethinking Education: Towards a global common good?* Paris: UNESCO Publishing. [\[P\]](#)
  6. Xolmatov, S. (2023). O‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning zamonaviy usullari. *Innovatsion ta’lim*, 2(1), 30–35. [\[P\]](#)
  7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. [\[P\]](#)

